



# QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI

ILMIY-ELEKTRON JURNALI  
5-SON

**KOKAND UNIVERSITY** | **2022**  
**HERALD** | **VOLUME №5**

**QO‘QON  
UNIVERSITETI  
XABARNOMASI  
5-SON**

**KOKAND  
UNIVERSITY  
HERALD  
VOLUME 5**

**ВЕСТНИК  
КОКАНДСКОГО  
УНИВЕРСИТЕТ  
ВЫПУСК 5**

5/2022

# QO'QON UNIVERSITETI

## XABARNOMASI

### Ilmiy-elektron jurnali

**Tahrir kengashi raisi:**

G'.E.Zaxidov

**Bosh muharrir:**

Sh.R.Ruziyev

**Tahrir kengashi mas'ul kotibi:**

A.A.Yusupov

**Tahririyat hay'ati:**

1. I.f.d., prof., S. G'ulomov (O'z.R. Fanlar Akademiyasi)
2. DSc., prof., Sh. I. Mustafakulov
3. DSc., Mark Rozenbaum (AQSH)
4. PhD., I. Bobojonov (IAMO, Germaniya)
5. PhD., N. Djanibekov (IAMO, Germaniya)
6. PhD., K. Akramov (IFPRI, AQSH)
7. PhD., N. Yusupov (Woosong University, J.Koreya)
8. DSc., D. Xosilova (University of Wyoming, AQSH)
9. I.f.d., prof., B. Salimov (TDIU)
10. I.f.d., prof., K. Axmedjanov (KIUT)
11. I.f.d., prof., N. Maxmudov (TDIU)
12. PhD., Sh. Aktamov (Singapur universiteti)
13. I.f.d., prof., U. Gafurov (TDIU)
14. I.f.d., prof., X. Qurbonov (TDIU)
15. F.f.n., dotsent D. Xodjayeva (QDPI)
16. I.f.n., dotsent, N. Urmonov (TDIU)
17. F.f.d., prof., Sh. Shaxobidinova (ADU)
18. F.f.d., prof., M. Umarxodjayev (ADU)
19. I.f.n., dotsent, J. Qambarov (FarPI)
20. PhD, dotsent, D. Rustamov (ADU)
21. I.f.n., dotsent, A. Islamov (Qo'qon universiteti)
22. PhD., M.Najmiddinov (Qo'qon universiteti)

**Qo'qon universiteti xabarnomasi**

(“Вестник Кокандского университета – Kokand University Herald”) ilmiy-elektron jurnali Qo'qon universiteti Kengashining qaroriga asosan tashkil etilib, 2020-yil 10- oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №1138 raqami bilan ro'yxatidan o'tkazilgan, shuningdek davlatlararo standartlar talabi asosida O'zbekiston Milliy kutubxonasidan jurnal uchun 2181-1695 ISSN-raqami olingan.

© “Kokand University” – 2022

**Tahririyat manzili:**

150100, Farg'ona viloyati, Qo'qon shahri, Turkiston ko'chasi, 28 a-uy, 1-xonadon

## Mundarija:/Outline:

<b>Iqtisodiyot / Economy</b>			
1.	I. Foziljonov	Modern methods for forecasting cash flows	3-6
2.	D. Nuritdinova	Management of processes of implementation of state interactive services through information technologies	7-9
3.	Tsoy Marina.	The role of gender equality in poverty reduction and decent job creation - world experience and practice of Uzbekistan	10-13
4.	B. Turanboyev B. Rajabboyev	Puzzles involving the stock market, inflation and the predictability of stock market returns	14-17
5.	A. Bakirbekova	К вопросу об управлении человеческими ресурсами в международных компаниях	18-25
6.	J. Kambarov	Yangi sanoat inqilobini risk boshqaruviga ta'siri masalalari	26-29
7.	F. Mulyadinov	Sanoat korxonalari va biznes faoliyatida integratsion axborot tizimlari	30-35
8.	M. Diyarova	Qurilish sohasida kichik biznes sub'yektlarining innovasion faoliyati va uni tashkil etishning asosiy tamoyillari	36-39
9.	R. Toxirov	Tadbirkorlik subyektlari samaradorligini baholashning uslubiy yondashuvlari	40-43
10.	M. Boltayeva, A. Suyunov	Mamlakat iqtisodiyotida turizmni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	44-46
11.	O. Ahmadjonov	O'zbekistonda islomiy moliya tizimini qo'llash istiqbollari	47-51
12.	M. Tojiyeva	Biznesni rivojlantirish samaradorligi hamda uni baxolashning uslubiy yondashuvlari	52-58
<b>Pedagogika / Pedagogy</b>			
13.	K. Kaziyeu, Sh. Bisenova, F. Khamidullayev	Reflection as a quality for effective professional activities and self-development	59-63
14.	G. Umirova	Iqtisodiyotimizni rivojlantirishda innovatsiyalarning tutgan o'rni va roli	64-66
15.	F. Berdibekova	Akmeologik yondashuv asosida o'qituvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirish	67-70
16.	M. Salayeva M. Djumabaeva	Bo'lajak pedagoglarni kasbiy tayyorlash jarayonida kreativ faoliyatini rivojlantirish	71-74
17.	B. Ergasheva	Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash texnologiyasi pedagogik muammo sifatida	75-77
18.	M. Baqoyeva	Maktabgacha katta yoshdagi tarbiyalanuvchilarda bilishga qiziqishni rivojlantirish texnologiyasi	78-81
19.	L. Axmadaliyev	Qayyumiy" asaridagi №3-16-fiqralarning tazkira qo'lyozma va nashri o'rtasidagi matnii-qiyosiy tadqiqi	82-88
20.	S. Muxabbat	O'zbek pedagogikasi tarixini davrlashtirishning nazariy asoslarini takomillashtirish tarixiy-pedagogik zarurat sifatida	89-92
21.	A. Tangriyev	Yosh dzyudochilarda tezkor-kuch qobiliyatining samaradorligini oshirish	93-95
<b>Fizika / Physics</b>			
22.	G. Nafasova	Bo'lajak fizika o'qituvchilarida mantiqiy kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari	96-97
23.	G'. Nafasov D. Abduraimov	Transversal izotrop jism uchun ikki o'lchovli termoelastik bog'liq masalani sonli modellashtirish va uning dasturiy ta'minoti	98-103
<b>Lingvistika / Linguistics</b>			
24.	M. Xolova O. Lolayeva	Lingvistikada orfografik tamoyillar va tahlillar	104-106



## MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI TARBİYALANUVCHILARDA BILISHGA QIZIQISHNI RIVOJLANTIRISH TEKNOLOGIYASI

**Ilmiy rahbar: Hamdamova Maxsuna Tursunovna**

**Baqoyeva Maftuna Sulton qizi**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

(Maktabgacha ta'lim yo'nalishi) 2-bosqich magistranti

e-mail baqoyevamaftuna35@gmail.com

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
<p><b>Qabul qilindi:</b> 24-dekabr 2022-yil</p> <p><b>Tasdiqlandi:</b> 26-dekabr 2022-yil</p> <p><b>Jurnal soni:</b> 5</p> <p><b>Maqola raqami:</b> 18</p> <p><b>DOI:</b> <a href="https://doi.org/10.54613/ku.v5i5.223">https://doi.org/10.54613/ku.v5i5.223</a></p>	<p>Mazkur maqolada, maktabgacha va katta yoshdagi tarbiyalanuvchilarda bilishga bo'lgan qiziqishni rivojlantirish texnologiyasi haqida so'z boradi hamda bilishga bo'lgan qiziqishning mohiyati yoritiladi.</p>
KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/ Keywords	
<p>bilish, qiziqish, bilim, ko'nikma, malaka, faoliyat, texnologiya, o'yin, kognitiv qiziqish</p>	

**Kirish.** Atrofdagi dunyo haqidagi ma'lumotlarni o'zlashtirish insonning bilish qiziqishlarining qay darajada rivojlanganligiga bog'liqdir. O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Maktabgacha ta'lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi. Me'yoriy-huquqiy hujjatlarda maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim dasturi bolani to'laqonli har tomonlama kamol toptirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya jarayoni tashkil etilishini ta'minlash kabi muhim masalalar belgilangan. Bu esa o'z navbatida, mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimining rivojlanishiga, bolalar va ularning ta'lim-tarbiyasi masalasi davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri ekanligidan dalolat beradi.

Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarni tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli qarori "Nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3276-sonli qarori "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-sonli qarori, "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3305-sonli qarori, "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvi tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5198-sonli Farmoni qabul qilindi.<sup>1</sup>

«Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari» va «Ilk qadam» o'quv dasturining ishlab chiqilishi uzluksiz ta'lim tizimida maktabgacha ta'limni samarali amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Albatta maktabgacha ta'limni ham shaklan, ham mazmunan yangilashga qaratilgan bu kabi innovatsiyalar ota-onalardan tortib barcha pedagoglar bola tarbiyasi,

uning ta'lim olishga tayyorgarligiga zamon talablaridan kelib chiqqan holda yondashuvini talab etadi. Bugungi kunda yosh avlodni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish va jahondagi o'z tengdoshlari bilan raqobatlasha oladigan kuchli bilimlar egasi etib tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalasiga aylanganidir. Yaratilayotgan ulkan imkoniyatlar yosh avlodni ta'lim-tarbiya olishida o'zining munosib hissasini qo'shmoqda. O'sib kelayotgan yosh avlodga har qaysi ta'lim yoshida o'ziga xos e'tibor qaratilishi yoshlar tarbiyasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilganidan darak beradi. Millatimizga xos bo'lgan ilm olishga qiziqish, intilish, jo'shqinlik, qat'iyatlilik, shijoatkorlik, yuksak salohiyat avlodlar davomiyligini ta'minlovchi sifatlar hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi Farmonining Ijtimoiy sohani rivojlantirish deb nomlangan to'rtinchi yo'nalishida ko'rsatib berilgan bo'lib, unda Maktabgacha ta'lim muassasalarining qulayligini ta'minlash, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus va oliy ta'lim sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish<sup>2</sup> zarurligi takidlangan. Maktabgacha ta'lim muassasalari, birinchidan, maktab yoshiga qadar bo'lgan bolalarning umumiy savodini chiqarish, bolalarda Vatanni sevish, u bilan g'ururlanish hissini uyg'otish, Konstitutsiyani o'rgatish, dunyoqarashini kengaytirish imkonini berayotgan bo'lsa, ikkinchidan, yosh bolali onalarning mehnat qilishga oid konstitutsiyaviy huquqini ro'yobga chiqarishga ham xizmat qiladi. 2019-yil 8-mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan «O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi» tasdiqlandi.

Konsepsiyada: «Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirish uchun sharoitlarni yaratish, ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, bolalarning rivojlanganligi darajasini va ularning boshlang'ich ta'limga tayyorligini, shuningdek, ularning ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, jismoniy va ijodiy rivojlanishini baholash asosida amalga oshirilishi lozim»<sup>3</sup> ligi alohida takidlangan. Ayniqsa, ta'lim tizimining yetakchi bo'g'inlaridan biri hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimida o'qitilishining sifati va samaradorligiga katta ahamiyat berish davr talabiga aylandi.

<sup>1</sup> 2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli qarori 29.12.2016 y., "Nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3276-sonli qarori 5.09.2017y., "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-sonli qarori 09.09.2017 y., "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3305-sonli qarori 30.09.2017 y., "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvi tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5198-sonli Farmoni 30.09.2017 y..

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining – o'zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha xarakatlar strategiyasi to'g'risidagi farmoni. Xalq so'zi gazetasi 2017 yil. , №-soni

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi .O'zbekiston Respublikasi Prezidentining –O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi 2019-yil 8 -maydagi PQ-4312-son Qaroriga 1-ilova.

Maktabgachcha yoshdagi bolalarning bilishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, qiziqishlarini shakllantirish tarbiyachilarning eng asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning bilishga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish juda ko'plab omillarga bog'liqdir. Asosiy omillardan biri bu tarbiyachining mashg'ulotlarni bolalar uchun qiziqarli qilib tashkil eta olishi, o'yin faoliyati orqali aniq yetkazib bera olishidir.

**Adabiyotlar tahlili.** Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarda bilishga qiziqishni shakllantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Tarbiyachilar maktabgacha yoshdagi bolalarda bilishga qiziqishni shakllanishiga yordam beruvchi turli xil faoliyatlarni tashkil etishning innovatsion yondashuvlari va texnologiyalardan foydalanishga intiladilar.

Xorijda maktabgacha bilishga qiziqishni rivojlantirish mavzusida ish olib borib uslubiy tavsiyalar ishlab chiqqan olimlar: B.G. Ananeva, Ye.A. Bogoslovskiy, L.I. Bojovich, V.B. Bondarevskogo, P.YA. Galperina, V.V. Davidova, N.S. Denisinkovoy, A.K. Dusaveskova, Ye.L. Ilina, A.G. Kovaleva, A.I. Kondratyuka, S.I. Kudinova, Yu.N. Kulyutkina, A.N. Leonteva, A.K. Markovoy, M.Y. Matyuxinoy, M.F. Morozova, V.N. Myasisheva, Y.A. Obuxovoy, A.B. Orlova, L.B. Proskuryakovoy, S.L. Rubinshiteyna, I.A. Sividirovo.

Respublikamiz olimlaridan maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim tarbiyasi va bilishga qiziqishlari shakllantirishda N. Begamatova, U. Bo'tayeva, F. Vahabova, B. Djurayeva, K. Mamedov, S. Mirjalilova, L. Mirjalolova, L. Mo'minova, F. Nazarova, G. Nazirova, N. Nurmuhammedova, R. Rahimova, N. Rejаметova, O'Ro'zibayeva, A. Sulaymonov, H. Tajibayeva, M. Fayzullayeva, D. Sharipova, D. Shodiyeva, Sh. Shodmonova, P. Yusupova, F.R. Qodirova, Sh. Q. Toshpo'latova, N.M. Qayumova, M.A'zamova, Sh. Sodikova, D. Babayeva, N. Jamilova, O. Hasanbayeva, O. Maxmudova, S. Maxmudovalar ish olib borishgan;

Bilishga bo'lgan qiziqishlarni rivojlantirish masalasining fiziologik asoslari (I.M. Sechenov, I.P. Pavlov, S.L. Rubinshteyn, Yu.A. Samarinar); Psixologik asoslari; (A.S. Vigotskiy, S.L. Rubinshteyn, A.N. Leontev, P.YA. Galperin, D.B. Elkoninlar); pedagogik jarayonda shaxsni ko'zda tutishga asoslangan pedagogik texnologiya (Sh.A. Amonashvili texnologiyasi); o'quv materialini sxemalar va modellar ishorasi asosida o'qitishni jadallashirish texnologiyasi (V.F. Shatalov texnologiyasi); o'quv jarayonini samarali boshqarish va tashkil etish asosiga qurilgan texnologiya (S.N. Lisenkova texnologiyasi, N.P. Guzikning o'qitish tizimini rejalashtirish texnologiyasi); o'qitishni dasturlash texnologiyasi (B.P. Bepalko)lar tomonidan ilmiy asoslab berilgan. Bu tadqiqotlarning barchasi bolalarning bilish faoliyatlarini takomillashtirish maqsadini ko'zlagandir. Yuqoridagi tadqiqotlarning barchasi turli davrlar ehtiyoji va talablari nuqtai nazaridan o'rganilgan bo'lib, o'ziga xos ahamiyatga ega. Biroq, aynan maktabgacha yoshdagi bolalarining bilishga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish masalasi bugungi davr talablari asosida qayta o'rganib chiqishni taqozo etamokda.

**Tadqiqot natijalari.** Shaxsning rivojlanishida, uning intellektual salohiyatini oshirishda bilishga qiziqish faoliyatlari muhim ahamiyatga egadir. Bilishga qiziqishni rivojlantirish zamonaviy ta'lim jarayonining asosiy muammolaridan biri bo'lib hisoblanadi. Bilimlarni o'zlashtirishda ilg'or davr sifatida maktabgacha yoshning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda bolalarning bilim olish qiziqishlarini rivojlantirish uchun psixologik-pedagogik shart-sharoitlar yaratish zarur, bu esa keyingi o'qishga tayyorlash uchun muhim hisoblanadi.

Ta'lim va tarbiya shaxsning shakllanishiga hissa qo'shishi uchun bolaning bilim faoliyatining manbai bo'lgan va insonning bilim qiziqishini rivojlanishiga asos bo'lgan bilishga ehtiyojni "uyg'otish" kerak.

Maktabgacha yoshdagi bolalar atrofidagi dunyoni faol o'rganadilar, shuning uchun bu yosh ayniqsa bilishga qiziqish faoliyatni shakllantirish uchun qulaydir. Olimlar, tadqiqotchilar bu yoshda bolalarning bilim olishga, muayyan ko'nikma va malakalarni yegallashga bo'lgan kuchli qiziqish borligini isbotladilar. Atrofdan sodir bo'layotgan narsalarni bilish uning tasavvurini, xotirasini ayrim hodisalarga baho berish, ta'sir ko'rsatish qobiliyatini rivojlantiradi.

Bilish - borliq va uning ob'ektiv qonuniyatlarini o'rganish, anglash, o'zlashtirish, egallash. "Bilish-olaning inson ongidagi in'ikos

etish jarayoni. Inson o'zini qamrab olgan atrof-muxit to'g'risida bilish va tasavvurga ega bo'lmay turib, faoliyatning biron bir turi bilan shug'ullana olmaydi. Bilishning maxsuli natijasi bilim bo'lib, har qanday kasbni egallash faqat bilim orqali ro'y beradi" deya izoxlangan.<sup>4</sup>

Shu bilan bilishning kundalik, badiiy, ilmiy darajalari ham mavjud. Ilmiy bilish, o'z navbatida ikkiga, ya'ni tabiat va jamiyatni bilishga ajraladi va ularning o'ziga xos yo'nalishlari hamda maqsad va vazifalari bor.

Bilish-inson tomonidan voqelikni aks ettirish protsessi. Agar bilish shaxsning o'ziga qaratilgan bo'lsa, u o'z-o'zini belgilash deb ataladi.

Bilish-psixik aks ettirish jarayoni, bilimlarni egallash va uni o'zgartirishni ta'minlaydi.

Qiziqish- bilish, o'rganish va shu kabilarga intilish, havas mayli; shaxsning o'zi uchun qimmatli va yoqimli bo'lgan muayyan narsa va hodisaga munosabati.

Qiziqish-shaxsning muayyan narsa yoki hodisaga ega bo'lishga, bilishga faol va barqaror yo'nalishidan iborat individual xislati yoki faoliyat motivi bo'lib, u har qanday faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Qiziqishlar shaxsni o'zida bilim olish va anglab etish borasida hosil bo'lgan ishtiyoqni qondirish yo'llarini va usullarini izlashga majbur etadi, ya'ni qiziqishlar bilishning doimiy qo'zg'atuvchi mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun darslarda bolalarga bilim berish usullarining qiziqarli bo'lishini ta'minlash zarur. Bu bolalardagi mavjud qiziqishlarga asoslangan holda amalga oshiriladi.

Bolalarda bilishga bo'lgan qiziqishni hosil qilishda ulami faol ijodiy faoliyatga undovchi pedagogik texnologiya katta ahamiyatga ega. Bunga bolalarga o'quv materiallaridan ularning kuchi yetadigan, qiziqarli topshiriqlarni berib bajartirish yo'li bilan erishish mumkin.

Qiziqish-bu faoliyatning maxsus tusini, shaxsiyat holatini (o'quv jarayonidan quvonch, qiziqish mavzusini bilishga, bilish faoliyatiga kirishish, muvaffaqiyatsizliklarni bartaraf etish va ularni yengish uchun kuchli irodali intilishlarni) shakllantiradigan faoliyat. Qiziqish-bu inson tomonidan olib boriladigan faoliyatning doimiy kuchli motivlaridan biridir.

Psixologlarning ta'kidlashicha, qiziqish manbalari ijtimoiy hayotda bo'lib, qiziqish bola qiziqishlarining o'ziga xos mazmuni shakllanadigan faoliyatda rivojlanadi va boyiydi, ya'ni bilishga qiziqishning manbai bola hayoti, atrof-muhitidir. Olimlar har bir maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim manbalariga bo'lgan qiziqishning o'zgarishini va muayyan manbani o'rganish uchun bilish harakatlarining o'zgarishini qayd etadilar. Bu bolaning tafakkurining rivojlanish darajasiga bog'liq, chunki ob'ektlarni o'rganish intellektual, izlanish xususiyatiga ega. Bilishga qiziqishning rivojlanishi doimiy ravishda savollar, vazifalar bilan rag'batlantiriladi, javoblarning faol bo'lishi mavzuning mazmuniga kirib boradi. So'z insonni zarur harakatlarni amalga oshirishga, uning qiziqishi bilan bog'liq holda maqsadga muvofiq xatti-harakat qilishga undaydi, uni bilish jarayoniga kirib borishini ta'minlaydi. Bilishga qiziqish-shaxsning samarali faoliyatga irodali intilishi bilan bog'liq.

Maktabgacha ta'lim muassasasi bitiruvchisi uchun jamiyatning zamonaviy ijtimoiy buyurtmasi, birinchi navbatda, aniq bilimlarga qo'yiladigan talablarga emas, balki yangi universal qobiliyatlarga, shakllangan doimiy kognitiv motivlarga taalluqlidir, ularning asosiy kognitiv qiziqishdir. Qiziqish holati natijasida odam (bola, kattalar) har doim ozmi-ko'pmi faol, muvaffaqiyatli bo'ladi. Kognitiv qiziqish, uning namoyon bo'lishi faoliyatning maxsus shakllarining ustunligi va tashqi taassurotlarga bo'lgan ehtiyojdan kelib chiqadigan ijobiy affektiv holat, tashqi dunyo bilan o'zaro munosabat va unga tanlangan e'tibor bilan bog'liq. Maktabgacha yoshdagi psixologik xususiyatlar (hissiyotlilik, kuzatish, taqild qilish, o'z taassurotlarini o'yin va samarali faoliyatda ifoda etish istagi) tufayli, kattalar faoliyati mahsuli va uning insoniy tafakkurining yaratilishi sifatida ob'ektiv dunyo haqidagi tarixiy ma'lumotlar alohida e'tiborga loyiqdir. Maktabgacha yoshdagi bolaning yuqori hissiyligi shaxsni yanada rivojlantirish uchun olingan ma'lumotlarning ahamiyatini belgilaydi. Maktabgacha bolalik davrida kognitiv qiziqish rivojlantirish natijasida bilim chegaralari kengayadi, dunyoning rivojlanishi, harakati, o'zgarishi haqidagi birinchi g'oyalarni shakllanadi, har bir predmetning o'tmishi, buguni va kelajagi borligini

<sup>4</sup> A. Madaliyev taxriri ostida "O'zbek tilining izohli lug'ati" Birinchi jild "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent 2020

anglash (atrofdagi ob'ektlarni dialektik ko'rib chiqish va tahlil qilishning dastlabki shakllari, uslubiy bilimlar deb ataladi). Shuni takidlash kerakki, zamonaviy ta'lim amaliyoti bolaning mustaqil kognitiv faoliyatining ahamiyatini past baholaydi, kognitiv qiziqishning rivojlanishi nafaqat ob'ektning sifat xususiyatlariga, balki bolaning o'z ijodiy izlanishlariga qanchalik jalb qilinishiga ham bog'liq.

**Muhokama.** Katta maktab yoshi- bu bolalar ijodkorligi, fantaziyasi, o'yinlarning eng ahamiyatli davridir. Bu yoshda bola atrof-muhitni yorqin, jonli, kishini o'ziga tortadigan darajada qiziqarli holda qabul qiladi. Bolaning bilishga doir rivojlanishida uning tasavvurlarining yanada umumlashishi, nafaqat konkret, balki ayrim abstrakt tushunchalarni ham qo'llashga qobiliyat tomonga qarab siljish ro'y beradi. Bu yosh davri oxiriga kelib o'z shaxsiy xulq-atvori va emotsional holatining ancha ongli ravishdagi tartibga solinishiga o'tish amalga oshiriladi, psixik jarayonlarni boshqarishdagi ixtiyoriylik paydo bo'la boshlaydi.

Maqsadga muvofiq o'qish faoliyati kichik maktab yoshidagi bolalarning aql idroki, sezgirligi, kuzatuvchanligi, o'quvilligi, esda olib qolishi, esga tushirish imkoniyatlarini rivojlantirish uchun muhim shart-sharoitlar yaratadi, bolalarda o'qish, yozish, hisolash malakalarini shakllantiradi. Bundan tashqari, mazkur ta'lim jarayonida ularning bilimlari ko'lamini kengaytadi, bilishga qiziqishlari ortadi, ijodiy izlanish qobiliyati rivojlanadi, ularda tafakkurning faolligi, mustaqilligi, mahsuldorligi ortadi, aqliy imkoniyatni ishga solish vujudga keladi, o'quv fanlariga ijobiy munosabat, qat'iy shug'ullanish niyati, jamoatchilik oldida mas'uliyatli his qilish, bilim olishning ijtimoiy ahamiyatini anglash tuyg'ulari tarkib topadi.

Bolalarda bilishga bo'lgan qiziqishni hosil qilishda ularni faol ijodiy faoliyatga undovchi pedagogik texnologiya katta ahamiyatga ega. Bunga bolalarga o'quv materiallaridan ularning kuchi etadigan, qiziqarli topshiriqlarni berib bajartirish yo'li bilan erishish mumkin.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalar (5-7 yosh) o'z idroklarning aniqligi, ravonligi, sofligi, o'zgaruvchanligi bilan boshqa yosh davrlaridagi insonlardan keskin farqlanadi. Ular har bir narsaga berilib, o'z ta'sirchanligi bilan qarashlari sababli idrokning muhim xususiyatlarini o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Buning sababini ularning oliy nerv faoliyatiga birinchi signal tizimi uzunligi bilan izohlash mumkin. Ular, sehri, jilolanishi, jozibasi o'ziga tortadi. Lekin ta'limning dastlabki bosqichida idrokning ayrim zaif tomonlari ko'zga tashlanadi.

Bu yoshga kelib, bola aniq fikrga va tanlash qobiliyatiga yega bo'la boshlaydi. Bu davr aqliy rivojlanish uchun juda muhimdir, chunki bilishga qiziqish faoliyati yetakchi rol o'ynaydi. Bu shaxs ruhiyati sohasidagi muhim o'zgarishlarning kuchga kirishiga imkon beradi. Astasekin tafakkur jarayoni dastlab bilish jarayonlari bilan bog'liq ravishda shakllanadi.

Bolaning rivojlanishida bilimning mazmuni o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- bolalarning qiziqishlari, qiziquvchanligi va bilim motivatsiyasini rivojlantirish;
- bilishga bo'lgan harakatlarini shakllantirish, ongni shakllantirish; tasavvur va ijodiy faoliyatni rivojlantirish;
- atrofdagi odamlar va narsalar haqida birlamchi g'oyalarni shakllantirish;
- atrof-muhitdagi ob'ektlarning xususiyatlariga munosabatlari (shakli, rangi, o'lchami, materiali, ovozi, harakati) haqidagi g'oyalarni shakllantirish;
- Vatan va Vatan haqidagi, xalqimizning ijtimoiy-madaniy qadriyatlarini, an'ana va bayramlar haqidagi g'oyalarni shakllantirish;
- yer sayyorasi haqida, tabiatining o'ziga xos xususiyatlarini, dunyo mamlakatlari va xalqlarining xilma-xilligi haqidagi g'oyalarni shakllantirishdir.

Maktabgacha ta'lim sohasidagi izlanishlar shuni ko'rsatdiki, maktabgacha yoshdagi bolalarda bilishga bo'lgan qiziqishni shakllantirish zamonaviy ta'lim texnologiyalari orqali amalga oshirish mumkin. Kognitiv qiziqishning murakkab shaxsiy ta'lim sifatida rivojlanishi asta-sekin bolaga muammoli vaziyatga kirishga imkon beradigan amaliy yo'nalishga ega bo'lgan faoliyatda sodir bo'ladi. Mavzu bo'yicha ma'lumotlarni olish, sintez qilish, birlashtirish, faol foydalanish imkoniyatini ta'minlaydigan bunday faoliyat loyiha faoliyati hisoblanadi. Uzoq vaqt davomida pedagogika fanida maktabgacha

yoshdagi bolalarning bilim qiziqishlarini rivojlantirishga alohida e'tibor berilmagan. Birinchilardan biri kognitiv qiziqish B.G. Ananyeva, L.N. Bojovich, L.S. Vygotskiy, L.A. Venger, A.G. Zaporozets kabi olimlar bolalarni bilim olishga, o'rganishga undaydigan yetakchi motivlardan biri sifatida ko'rib chiqila boshlandi. Ularning tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, kognitiv qiziqish faol kognitiv faoliyat bilan yanada muvaffaqiyatli shakllanadi. Bolaning kognitiv qiziqishi yangi narsalarni o'rganish, ob'ektlarning fazilatlarini, xususiyatlarini, voqelik hodisalari haqida tushunarsiz narsalarni aniqlash, ularning mohiyatini tushunish, ular orasidagi mavjud munosabatlar va aloqalarni topish istigida namoyon bo'ladi.

Hozirgi vaqtda kognitiv qiziqish tushunchasini aniqlashda turli xil yondashuvlar shakllandi. U quyidagicha ko'rib chiqiladi:

- insonning tanlangan yo'nalishi (N.F. Dobrinin, T. Ribot);
- aqliy va hissiy faoliyatning namoyon bo'lishi (S.L. Rushinshteyn);
- turli xil his-tuyg'ularning faollashtiruvchisi (D. Freyer);
- shaxsning hayotiy ahamiyati va hissiy jozibadorligi ongidan kelib chiqqan ob'ektga o'ziga xos munosabati (A.K. Kovalev);
- insonning dunyoga faol kognitiv munosabati (V.N. Myasishchev);
- shaxsning atrofdagi dunyo ob'ektlari va hodisalariga tanlangan yo'nalishi (T. A. Kulikova, N. G. Morozova, G. I. Shukina).

Zamonaviy tadqiqotlar kognitiv qiziqishni shakllantirish muammosining turli jihatlarini taqdim etadi. G.I. Shchukina kognitiv qiziqishning tarkibiy qismlarini ko'rib chiqadi: intellektual, hissiy, tartibga soluvchi va ijodiy jarayonlar. A. Vallon kognitiv qiziqishni bilish predmetiga hissiy munosabat prizmasi orqali tahlil qiladi. Uning fikriga ko'ra, kichkina bolani bilishning birinchi ob'ektlaridan biri bu ob'ektiv dunyo bo'lib, ob'ektiv dunyoga kognitiv munosabatni shakllantirish uning bola tomonidan rivojlanishining muvaffaqiyatini belgilaydi va ko'p jihatdan uning sotsializatsiya jarayonini belgilaydi. Loyiha usuli ob'ektiv dunyo tarixiga kognitiv qiziqishni rivojlantirish vositasi sifatida yaxlit xususiyatga ega. Bir qator mualliflar loyiha faoliyatini maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitishning integratsiyalashgan usulining variantini, o'qituvchi va o'quvchining o'zaro ta'siriga asoslangan pedagogik jarayonni tashkil etish usuli, maqsadga erishish uchun bosqichma-bosqich amaliy faoliyat (L.S. Kiseleva, T.A. Danilina, M.B. Zuykova). Boshqalar loyiha faoliyatining mohiyatini, uning muammoli xususiyatini, o'quv jarayonidagi o'zgarishlarni tahlil qiladilar. (T.A. Danilina, B.V. Ignatiev, U. Kilpatrik, M.V. Krupenina, N.G. Cherniglov). Shu bilan birga, ko'pgina tadqiqotlar loyiha faoliyatining barcha potensial imkoniyatlarini, uning ob'ektiv dunyo tarixiga kognitiv qiziqishni rivojlantirishdagi rolini yetarlicha o'rganmagan.

**Xulosa.** Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tadqiqot faoliyatining maqsadi maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning asosiy kompetensiyalarini fikrlash turini tadqiq qilish qobiliyatini shakllantirishdan iborat. Ushbu texnologiya o'z ichiga quyidagilarni oladi: O'yin vositasidagi bilim nafaqat bolalar, balki kattalar faoliyatining ham muhim unsuri hisoblanadi. O'yin jarayonida shaxs qizg'in bilish faoliyatini amalga oshiradi, bilimlarning katta hajmini o'zlashtiradi, kasb-hunarga doir o'yinlar, sport o'yinlari, aktyorlarning o'yinlari va shu kabilarini qon-qoniga singdiradi. O'yin bolalarning qiziquvchanligini qondirish, ularning ma'naviy dunyosi va ma'lum bilimlari, o'zaro til topish ko'nikmalari va shu kabilarini shakllantirishda muhim ijtimoiy rol o'ynaydi.

O'yin bola uchun muammoli vaziyat- bu nazariy yoki amaliy vaziyat bo'lib, unda o'yin sharoitiga mos tayyor qoida yo'q. Muammoni hal qilish uchun muammoli vaziyat bilan bog'liq hamma narsani bajarishga qaratilgan harakatlar talab qilinadi. Masalan, muammoli-o'yin vaziyatlari: "Archa xonaga kiradimi?", "Qurilish materiallarini tashiydiz" kabi. Ushbu ta'lim texnologiyalaridan foydalanish nafaqat bolalarning bilishga qiziqishlarini shakllantirish, fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirish, ijodiy tamoyillarini ishlab chiqish, bir-birining muvaffaqiyatidan quvonish, birgalikda yangi g'oyalarni amalga oshirish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning bilim va nutq rivojlanishining eng samarali vositalaridan biri o'yindir. O'yin orqali bolaning bilish faoliyati shakllanadi. Atrofdagi muhit bilan, tabiat hodisalari, manzaralari, buyumlar, qush va hayvonlar, o'simliklar dunyosi bilan tanishadi. Inson faoliyati, mehnati, turmushidan xabardor bo'ladi. O'yin jarayonida bola faqat tashqi muhit hodisalari bilan tanishib, uni his etib qolmasdan balki bu voqea

hodisalarga nisbatan o'z munosabatini bildiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlari kognitiv, hissiy, xulq-atvor sohalari qamrab oladi va barqaror bilimga qiziqishini rivojlantirish imkonini beradi. Biroq, hamma narsa bolaga qiziqish uyg'otmaydi, buning uchun kognitiv qiziqishni rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratish muhimdir. Shart-sharoitlardan biri eng samarali o'qitish usullarini qo'llashdir, bu mening fikrimcha, loyiha faoliyati usulini o'z ichiga oladi. O'quv

jarayonida loyiha usulidan foydalanish jamoada ishlashni o'rganishga, bolalarni bilishga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirishga yordam beradi, maqsadga erishish uchun o'z harakatlari algoritmini ishlab chiqarishga o'rgatadi. Tarbiyachi, bolalarning bilim va ko'nikmalarni mustaqil o'zlashtirish bo'yicha yordamchisi, maslahatchisidir, shunga ko'ra, hamma narsani sinab ko'rish emas bitta loyihada hamma narsani to'liq ochib berishga erishish kerak.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli qarori 29.12.2016 y, "Nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3276-sonli qarori 5.09.2017y, "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-sonli qarori 09.09.2017 y., "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3305-sonli qarori 30.09.2017 y., "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5198-sonli Farmoni 30.09.2017 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining – O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha xarakteristik strategiyasi to'g'risidagi farmoni. Xalq so'zi gazetasi 2017 yil, №-soni
3. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi .O'zbekiston Respublikasi Prezidentining –O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi 2019-yil 8 -maydagi PQ-4312-son Qaroriga 1-ilova.
4. Венгер Л. А. Развитие способности к наглядно-пространственному моделированию // Дошкольное воспитание. — 1982.- № 3 С. 17–19
5. Кузина А. Ю. Развитие у старших дошкольников познавательного интереса к истории предметного мира в проектной деятельности: диссертация... кандидата педагогических наук: 13.00.07 / Кузина Анна Юрьевна; [Место защиты: ГОУВПО «Российский государственный педагогический университет»]. — Санкт-Петербург, 2009. — 200 с.
6. Выготский Л. С. Педагогическая психология. — М. АСТ, 2009. — 672 с.
7. Годовикова Д. Б. Форма общения с взрослым и познавательная активность дошкольника // Проблемы возрастной психологии: Тезисы докладов к VII съезду Общества психологов. М. 1989, 143 с.
8. Денисенкова Н. С. Формирование познавательной направленности у детей шестилетнего возраста на занятиях в детском саду. — М, ИМПЕКС, 1992, 122с.
9. Запорожец А. В. Избранные психологические труды. Т. 1. — М., Просвещение, 1986. — 176 с.
10. Веракса Н.Е, Веракса А. Н. Проектная деятельность дошкольников. Пособие для педагогов дошкольных учреждений. М.Мозаика — Синтез, 2010.
11. Куликова Т. О воспитании у детей познавательных интересов // Дошкольное воспитание, 1996 г. № 9 С. 23–25.
12. М.В.Халимова, О.Д. J.Qodirova, R.N. Nuriddinov "Psixologik atamalar izohli lug'ati" Andijon 2017. O'quv-uslubiy qo'llanma.
13. F.Qodirova, Sh.Toshpo'latova, N.Qayumova, M. A'zamova "Maktabgacha pedagogika" Darslik. Toshkent 2018.
14. E.A.Baranova «Diagnostika poznavatel'nogo interesa u mladshix shkolnikov i doskolnikov» Sankt-Peterburg 2005.
15. A.Madaliyev taxriri ostida "O'zbek tilinging izohli lug'ati" Birinchi jild" O'zbekiston milliy ensiklopediyasi " Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent 2020



**QO'QON UNIVERSITETI  
XABARNOMASI**

**KOKAND UNIVERSITY  
HERALD**

**ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО  
УНИВЕРСИТЕТА**

**5 / 2022**

**ISBN: 2181-1695**

Bosishga ruxsat etildi 2022-yil 28-dekabr.  
Qog'oz bichimi 60x84 1/8 «Libre Franklin, Montserrat»  
garniturasida. Shartli bosma tabog'i 8. Adadi 20 nusxa.  
Buyurtma rakami № . Baxosi shartnoma asosida.  
"Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi"

bosmaxonasida  
chop etildi.

